



HOZIRGI O`QUV JARAYONIDA KREDIT MODUL TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Aripova Nasiba Atxamovna

Toshkent arxitektura qurilish universiteti dotsenti

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-85>

ARTICLE INFO

Received: 06th February 2023

Accepted: 15th February 2023

Online: 16th February 2023

KEY WORDS

Kredit-modul tizimi, Bolonya tizimi, ta'lim integratsiyasi, akademik mobillik, Uchinchi Renessans.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kredit-modul tizimining bugungi kundagi jahon ta'lim jarayonidagi o'rne, ustunliklari hamda ushbu tizimning oliy o'quv yurti talabalarga beriladigan ko'nikmalari ilmiy o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarida kredit modul tizimini joriy etishni jadallashtirish yo'llari taklif etilgan. Xalqaro amaliyotlarning o'rganilishi natijasiga ko'ra jahonda ko'pgina davlatlarda oliy ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlashning kredit-modul tizimiga asoslanganligi rivojlangan davlatlar misolida asoslab berilgan.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti tezkor va zamonaviy asosda rivojlantirishning eng muhim asosi yuqori malakali kadrlar ehtiyojini ta'minlaydigan zamonaviy raqamlashtirilgan ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Bunday jarayonda oliy ta'limning alohida o'rne mavjud bo'lib, ushbu tizimni xalqaro talablar darajasida olib borish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- sonli Farmoniga ko'ra "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" da belgilab berilgan 46-maqсадda "**Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish**" muhim yo'nalish sifatida belgilangan [1].

Xalqaro amaliyotga ko'ra jahonda ko'pgina davlatlarda oliy ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash kredit-modul tizimiga asoslanadi. Jahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, 50 ga yaqin rivojlangan davlatlar kredit-modul tizimiga asoslangan Bolonya tizimi deklaratsiyasiga a'zo hisoblanadi. Mazkur davlatlarda ushbu tizimning joriy etilishi quyidagi qulayliklarni vujudga keltiradi:

Birinchidan, oliy ma'lumotli diplomlar xalqaro darajada tan olinadi;

Ikkinchidan, talabalarining yuqori bilim va amaliy ko'nikma olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi;

Uchinchidan, talabalar uchun Bolonya tizimiga kiruvchi universitetlar o'rtasida ortiqcha to'siqsiz akademik mobillik imkoniyatiga ega bo'ladi;



To'rtinchidan, professor-o'qituvchilar uchun ushbu tizim bo'yicha jahondagi universi tetlar o'rtasida akademik mobillik shakllanadi;

Beshinchidan, turli davlatlarning ta'lim tizimi o'rtasida xalqaro aloqalar kengaytiriladi hamda global ta'lim integratsiyasi shakllantiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019 yilning 8 oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi [2]. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma- bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Shuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kreditmodul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Ushbu ko'zlangan rejalarni amalga oshirish uchun bugungi kunda respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni bir qator muammoli holatlarni bartaraf etishni taqozo etadi:

Birinchiidan, barcha OTMlardagi boshqaruv va o'quv jarayonlari to'liq raqamlashtirish tizimiga o'tishni yo'lga qo'yish. Ayni paytda respublikada oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni HEMIS dasturi asosida "elektron dekanat", "elektron kafedra" va "elektron jurnal" tizimi asosida faoliyat yuritish yo'lga qo'yilmoqda;

Ikkinchiidan, o'quv jarayoni bilan bog'liq o'quv bo'limi faoliyatini qayta ko'rib chiqish va uni jahon tajribasi asosida tashkil etish. Bu borada har bir oliy ta'lim muassasasida kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha ishlaydigan maxsus alohida tuzilma faoliyatini tashkil etish;

Uchinchiidan, professor-o'qituvchilar faoliyatini xalqaro ta'lim darajasida kredit- modul tizimiga mos qayta ko'rib chiqish va shu asosdagi o'quv yuklamalarini shakllantirish;

To'rtinchidan, respublika OTMlarida o'quv jarayonini tashkil etish xalqaro tajri- badan kelib chiqib, talabalar boshqaruvini dekanat tizimidan ta'lim yo'nalishi tizimiga o'tkazish;

Beshinchidan, professor-o'qituvchilarni til bilish darajasiga qarab chet davlatlardagi universitetlarga chiqish imkoniyatla- rini kengaytirish;

Oltinchidan, dars berayotgan professor- o'qituvchilarni oylik ish haqlarini ularning erishgan muvaffaqiyatlari bo'yicha jahonning nufuzli universitetlar darajasiga yaqinlashtirish.

Umuman, yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etilishi oliy ta'lim tizimida mutlaqo yangicha yondashuvni va yangicha munosabatlarni shakllantiradi. Ushbu tizim bir tomondan ta'lim jarayonida sifatli o'quv jarayonini mavjud bo'lishligini va uni doimo ishlab chiqaruvchilar talabi asosida takomillashtirib borishligini talab etsa, ikkinchi tomondan dars beruvchi professor- o'qituvchilar va ta'lim oluvchi talabalar o'rtasidagi munosabatlarida shaffoflikni vujudga keltiradi.



Natijada, O'zbekiston ta'lim tizimi kredit-modul tizimiga asoslanishi respublikamizda Uchinchi Renessans poydevori shakllantirib, yangi O'zbekistonga munosib bilimli avlodni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Bolonya jarayonida ishtirok etishi va uning ta'lim tizimida kredit- modul tizimining joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mamlakatdagi OTMlarga xorijiy mamlakatlar OTMlari bilan aloqalarni kengaytirishni ta'minlaydi;
- Bolonya jarayoniga qo'shilish O'zbekistonga Yevropa ta'lim tizimidan foydalanish, diplomlar va malakalarning professionalligini e'tirof etish, kredit tizimini (ECTS) va diplom ilovasini joriy etish, ta'lim sifatini baholash, talabalar va fakultetlarning akademik uyg'unligini amalga oshirish va uzluksiz ta'limni ta'minlashga imkon beradi;
- Bolonya jarayonida ishtirok etish respublika uchun ta'lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish, olimlar va o'qituvchilarimiz malakasini oshirishga, xalqaro ta'lim sohasidagi O'zbekistonning o'rnini mustahkamlash uchun zarur shart- sharoit yaratishga asos bo'ladi;
- ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini, shuningdek o'qituvchini tanlash imkoniyatini beradi;
- oliy o'quv yurtlarida o'qitishning kredit tizimini joriy etish natijasida fanlar bo'yicha bilimlarni unifikatsiyalash (birxillashtirish), baholashda sub'ektivlikni bartaraf etish, pedagoglarning o'z ustida ko'proq ishlashi, raqobat muhitini yaratishga erishiladi;
- diplomlarimizni xalqaro maydonda tan olinishi, kelgusida umumiy Yevropa ta'lim maydonining bir qismi bo'lish imkonini beradi;
- individual ta'lim yo'nalishining tanlov imkoniyatini, bakalavr, magistr va doktorantlarning akademik erkinligini ta'minlashga yordam beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori. - <https://lex.uz/docs/5193564>
3. Mirzaev Q.J., Shavqiev E.Sh., Janzakov B.K. "Innovatsion iqtisodiyot": O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. 118-123 betlar.
4. Sharipova M. Bolonya jarayoni nima? - (Manbaga 23.09.2020 da muro- jaat etilgan).
5. Mustafaqulov Sh., Sulonov M. "Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik. 2020
6. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit- modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
7. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA



OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.